

SHAXSDA EKSTREMISTIK QARASHLAR SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK JIHALARI

Ataqulov Bekzod Abdurashitovich,
erkin izlanuvchi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.062>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi mavjud tajriba, mintaqa davlatlaridagi mazkur tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha qiyosiy tahlillari bayon etilgan. Shuningdek, terroristik harakatlarni amalga oshirishning muayyan usullari va terrorizmni psixologik xavfsizlikning muammoli sohasida ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ko'rib chiqilgan

Kalit so'zlar: qo'rquv, zo'ravonlik, ekstremizm, terrorizm, destruktiv guruh, psixologik xavfsizlik, tahdid, xavotir

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКСТРЕМИСТСКИХ ВЗГЛЯДОВ У ЧЕЛОВЕКА

Атакулов Бекзод Абдурашитович,
свободный соискатель.

Аннотация. В данной статье описан современный опыт борьбы с экстремизмом и терроризмом, сравнительный анализ борьбы с этими угрозами в странах региона. Также были рассмотрены отдельные способы совершения террористических актов и терроризм как социально-психологическое явление в проблемной сфере психологической безопасности.

Ключевые слова: страх, насилие, экстремизм, терроризм, деструктивная группа, психологическая безопасность, угроза, тревога.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF EXTREMIST VIEWS IN THE PERSON

Atakulov Bekzod Abdurashitovich,
free seeker

Abstract. This article describes the current experience in combating extremism and terrorism, comparative analyzes of combating these threats in the countries of the region. Also, certain methods of carrying out terrorist acts and terrorism as a socio-psychological phenomenon in the problematic area of psychological security were considered.

Keywords: fear, violence, extremism, terrorism, destructive group, psychological security, threat, anxiety

Kirish. Globallashuv sharoitida hamda xalqaro va mintaqaviy mojaralar transformatsiyasi davom etayotgan bir paytda, ekstremizm va terrorizmga qarshi samarali kurashish masalasi kun tartibidagi dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda ekstremistik va xalqaro terrorchilik tashkilotlari diniy aqidalar niqobi ostida yoshlarni zo'ravonlikka, milliy o'zligini, madaniy-ma'rifiy va oilaviy qadriyatlarini yo'qotishga undash yo'li bilan jamiyatda zo'ravonlik va radikal qarashlarni tarqatishni davom ettirmoqda. Bularning barchasi yoshlarni ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari safiga jalb qilish uchun shart-sharoit yaratmoqda.

Mustaqillik yillarida yurtimiz tarixan qisqa bir davrni bosib o'tish bilan birga ulkan marralarni ham qo'lga kiritdi. Buning natijasida o'zbekiston jahon hamjamiyatida o'zining o'rni va nufuziga ega bo'ldi. Biroq, ushbu erishilgan yutuqlar bilan chegaralanib qolmasdan, yangi yutuqlar sari intilish, mamlakatimizni yanada rivojlantirish, uning mustaqilligini yanada mustahkamlash, fuqarolarimizning tinch va osuda farovon hayotini ta'minlash yo'lida intilib yashash eng muhim vazifalarimizdan hisoblanadi.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi mavjud tajriba, shuningdek, mintaqa davlatlaridagi mazkur tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha holatning retrospektiv va qiyosiy tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, Markaziy Osiyoda ekstremistik va terrorchilik faoliyati, asosan, millatchilik (milliy), ijtimoiy, diniy va siyosiy g'oyalar ostida amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili: O'zbekiston Respublikasi har tomonlama o'ylangan tinchliksevar, pragmatik va

izchil tashqi siyosatni olib borib, ekstremizm va terrorizmning umumiy tahdidlariga qarshi kurashishda barcha davlatlar bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik uchun ochiqdir .

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, xavfsizlikning bo'linmasligi, o'z xavfsizligini boshqa davlatlar xavfsizligi hisobiga mustahkamlashga yo'l qo'yilmasligi, xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan norma va tamoyillarini hurmat qilish prinsiplariga asoslanadi.

Bugungi kunda Yaqin sharq mamlakatlari yoki Afg'oniston, Suriya, Ukraina mamlakatlarida sodir bo'layotgan qonli urushlar, qirg'in barotlarni ko'rib xulosa chiqargan holda mana shu buyuk zaminimizni har qanday tashqi kuchlardan asrashga doimo tayyor turishimiz, tinch va osoyishta hayotimizning qadriga yetib yashashimiz lozimligini ko'rsatib turibdi. Fuqarolarimizni, ayniqsa yoshlar va voyaga yetmaganlarni turli yot g'oyalar, «ommaviy madaniyat xuruj»lari hamda eng xavfli bo'lgan diniy-ekstremistik g'oyalardan asrash o'ta muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Terrorizm - bu siyosiy raqiblarni, muxoliflarni yo'qotish yoki qo'rqitish, aholi o'rtasida vahima va tartibsizliklarni keltirib chiqarish maqsadidagi zo'ravonlik harakatlaridir (ta'qib qilish, buzish, garovga olish, qotillik, portlatish va boshq.) [4].

Terrorizm - siyosiy maqsadda amalga oshirishga asoslangan zo'ravonlikdir [6]. Terrorizm - bu "qo'rqitish, majburlash vositasida siyosiy maqsadlarga erishish uchun kuch ishlatish bilan tahdid qilish".

Terrorchilik harakati – zo'rlik va jaholat mafkurasi, terror bilan amalga oshiriladigan siyosiy harakat bo'lib, bir necha asrlar oldin shakllangan, geografik jihatdan barcha mintaq va mamlakatlarda uchrashi mumkin bo'lgan murakkab fenomendir [3].

Ma'lumki, bugungi kunda terrorizm jinoyati butun jahon jamoatchiligini tashvishga solayotgan hodisalardan biri hisoblanmoqda. XXI asr - axborot asri, globallashuv davrida dunyo mamlakatlari oldida turgan asosiy xavf bu xalqaro terrorizmdir. Bugun biz jadal sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz [1].

Ekstremizm - (ing. aql bovar qilmas, haddan ziyod). Jamiyatda qabul uilingan qadriyatlar va meyorlarga zid qarashlarni ilgari surish, keskin qarashlar va choralarga moyillik. Hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin, odamzod bu haqida dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas. Bugungi kunda insoniyat jamiyati dunyoning qo'poruvchilik, zo'ravonlik va shunga o'xshash turli xil tahdidlar dunyo hamjamiyatiga juda katta xavf tug'dirmoqda.

Ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarning sabab va sharoitlarini o'rganish ushbu jinoyatlarga qarshi samarali kriminologik chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Terrorizmning kelib chiqishi uchun nafaqat obyektiv, balki muayyan tipdagi shaxslarning, siyosiy zo'ravonlik va mutaassiblik (fanatizm)ning o'ziga xos an'analari asosida shakllanadigan muayyan tipdagi ongning paydo bo'lishi kabi subyektiv shart-sharoitlar ham kerak. Bunda obyektiv shart-sharoitlar hal qiluvchi, ammo har doim ham yetarli bo'lmagan omildir. Chunki "bu shart-sharoitlar ko'pchilik mamlakatlar uchun umumiy bo'lishi mumkin, "o'z-o'zidan yuzaga keladigan" siyosiy terrorizm esa ularning ayrimlaridagina kelib chiqadi" [2].

Terrorizmning bevosita determinantalarini tashkil etuvchi, doimiy ravishda o'zgaruvchi va chambarchas bog'liq bo'lgan sabablardan kelib chiqadigan ko'p sonli quyidagi sabablar mavjud:

- 1) demografik muammo;
- 2) qurol savdosi;
- 3) ommaviy madaniyat;
- 4) millatlararo munosabatlardagi keskinlik;
- 5) ko'pgina masalalarning qonun darajasida tartibga solinmaganligi va boshqa.

Terrorizm jinoyatining amaliy ifodasini qurol-yarog'ning talon-toroj qilinishi misolida Andijon voqealarida ko'rish mumkin. Masalan, 2005-yil 13-mayda Andijonda sodir etilgan terrorchilik oqibatida 169 kishi halok bo'lgan, qurolli hujum davomida terrorchilar 305 dona qurol-aslahani, shu jumladan 205 ta avtomat va 100 ta to'pponcha, 231 ta granata va qurollarni qo'lga kiritgan, shuningdek, ular jazoni ijro etish muassasalari dan qariyb 600 nafar mahbusni chiqarib yuborgan [5].

Terrorizm uzoq tarixga ega hodisa bo'lib, uning ildizlari insoniyatning qadimgi tarixiga borib taqaladi. Terrorizmning asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

1) terroristik harakatlarni amalga oshirishning muayyan usullari va vositalari yaratildi. Bularga portlatish, qotillik, o't qo'yish, zaharlash, garovga olish kabi usullar hamda bomba, pichoq, xanjar, pistolet, miltiq, turli zaharli va porox kabi vositalardan foydalanish kiradi;

2) terrorizm o'z mafkurasini yaratdi, natijada terrorizmning turli ko'rinishlari paydo bo'ldi (so'l va o'ng, ijtimoiy va siyosiy, millatchilik, dunyoqarash, inqilobiy va boshqalar);

3) terrorizmning ijtimoiylashuvi ro'y berdi, ya'ni u aholining turli qatlamlari orasida, marginallardan tortib to aristokratlargacha o'z ijtimoiy bazasiga ega bo'ldi;

4) terrorizm institutsionallashib, o'zining doimiy tashkilotlarini yaratdi va xalqaro xarakter kasb eta boshladi;

5) terrorizm ommaviy xarakter kasb eta boshladi, ya'ni u tobora ko'proq qurbonlik talab qilib, qo'rquv va tahlikaga sola boshladi;

6) terroristlar odamlarni sarosimaga va dahshatga solishning zamonaviy usullari - gaz, bakteriologik vositalar masofaviy va kosmik aloqa, internet va ommaviy axborot vositalaridan foydalanishga o'tdilar. Garovga olinganlar hayotiga, yerning sun'iy yo'ldoshlari va hatto yadroviy arsenallarga nisbatan ham real xavf paydo bo'ldi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, diniy ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq holda sodir etiladigan jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

a) ushbu jinoyatlar natijasida ijtimoiy hayotning turli jabhalarida, ya'ni iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy, moliyaviy, boshqaruv va boshqa sohalaridagi munosabatlarga salbiy ta'sir o'tkazishida;

b) bunday toifadagi jinoiy faoliyatning uyushganligi, alohida tayyorgarlik asosida amalga oshirilishi, bir vaqtning o'zida boshqa ko'pgina jinoyatlarning sodir etilishida;

d) diniy ekstremizmning murosasizlikka asoslanganligi millatlar o'rtasida mojarolarni, diniy milliy kamsitishlari vujudga keltirishi, barqaror hayotni izdan chiqarishida;

e) jamiyatda barqarorlikni izdan chiqarishga, jamiyat a'zolariga keltirayotgan jismoniy, moddiy, ma'naviy, ruhiy zarar bilan insonlarda ishonchsizlik, g'ulg'ula uyg'otishda, mustahkam fikrga ega bo'lmagan yoshlarni jinoiy xatti-harakatlarga chorlashda, unga qarshi kurashish uchun katta xarajatlar sarf qilinishida;

f) turli xil ko'rinishdagi va katta miqdorda zararlarning yetkazilishidadir.

Ta'kidlash kerakki, odamlarni og'dirib olish uchun qo'llanadigan usullar talaygina. Suhbatdoshga ta'sir o'tkazish uchun unga "g'amxo'rlik ko'rsatiladi", hamdardlik bildiriladi, ular uchun "qayg'uriladi" va shu yo'l bilan ishonch qozonilib, e'tiborga erishiladi [7].

Shu bilan birga, inson hayotida yaxshi va noxush hodisalarning vujudga kelishini inobatga olsak, quyidagi voqea hodisalar kishini psixik inqiroz yoqasiga keltirishi mumkin:

-judolik (yaqin kishisining o'limi, ajralish va h.k.);

-o'limni keltirib chiqaruvchi og'ir kasalliklarga yaqinlari yoki o'zining chalinganligi;

-yashash joyining o'zgarganligi;

-tashqi ko'rinishning o'zgarganligi;

-ijtimoiy-siyosiy holatlarning o'zgarganligi;

-uylanish, turmushga chiqish;

-ijtimoiy mavqening tubdan o'zgarganligi(pasayishi).

Shuning uchun inqiroz davrida inson biron yaqin kishisining maslahati, ma'naviy qo'llashiga ehtiyoj sezadi. Agar yonida shunday kishisi bo'lmasa, uning faoliyatida salbiy xususiyatlar, xulq-atvorida og'ishlar kuzatilishi mumkin. Ularda psixologik madaniyat, mafkuraviy immunitet yetarli darajada shakllangan bo'lsa, bu jarayon salbiy asoratsiz kechadi. Terrorchilik tashkilotlari a'zolari tarkibi ham asosan tajovuzkor kayfiyatdagi paranoidlardan iboratdir. Ular ko'pincha o'z muvaffaqiyatsizliklari sababini tashqi omillardan izlaydigan (eksternal nazorat lokusiga ega) shaxslardir. Odatda ko'pchilik destruktiv guruhlar uchun guruhning barcha ichki muammolariga sababchi sifatida qaraladigan umumiy bir dushman timsoli mavjud bo'ladi. Timsol sifatida shayton, muayyan bir shaxs, hukumat yoki boshqa diniy-radikal tashkilotlar xizmat qilishi mumkin. Inson ba'zi kishilarni do'stlari, ayrimlarini dushmanlari qatoriga kiritadi va bu ehtiyoj, o'zligini himoya qilish hissi sifatida namoyon bo'ladi. Zo'ravonlik, terror, kuch ishlatish shaxsdan ichki o'z-o'zini oqlashni talab etadi. Vashington psixiatriya maktabida, Sharqiy Osiyo tadqiqotlari markazi bilan hamkorlik qiluvchi Garvard universitetida dars bergan, Yel

universiteti Tadqiqot jamgʻarmasi hamda Nyu York universiteti Jon Jey nomidagi jinoiy huquq kollejida taʼlim bergan psixiatriya professori Robert Jey Lifton oʻzining “Tafakkurni isloh qilish. Totalitarizm psixologiyasi” kitobida oʻz-oʻzini oqlash jarayonini tahlil qilib, unda “shaxs qiyofasining yevrilishi” unsurlari mavjudligiga eʼtibor qaratdi.

Muhokama va xulosalar: yuqoridagi muammolar va ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida terrorizmni psixologiyadagi yangi ilmiy yoʻnalish - psixologik xavfsizlikning muammoli sohasida koʻrib chiqish mumkin. Mamlakat olimlarining terrorizmning oldini olishga bagʻishlangan ishlarini oʻrganish shuni koʻrsatdiki, terrorizmning ijtimoiy-psixologik determinantlarini aniqlash yoʻlida yuzaga keladigan eng muhim muammolar va uning oldini olishning ijtimoiy-psixologik shartlari yoshlar muhitida “ekstremizm” toifasini belgilash va uning mohiyatini aniqlash uchun yagona konsepsiyani ishlab chiqishda deb hisoblaniladi. Muammoning yana bir murakkabligi shuki, bunda nafaqat psixologlar ularni ilmiy nuqtai nazardan oʻrganishadi, shuningdek, siyosatchilar, faylasuflar, huquqshunoslar, pedagoglarning ham birgalikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, terrorizmning oldini olish, uning kriminologik jihatlarini chuqur ilmiy jihatdan oʻrganish, terrorizm jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslarning xususiyatlarini tadqiq etish hamda ushbu salbiy illatga qarshi kurash uchun kerakli maxsus bilimlarga ega boʻlish talab etiladi.

Shuningdek, terrorizm sabablari juda murakkab va koʻp darajali xususiyatga ega. Terrorizm jinoyatlarining sabab va sharoitlarini oʻrganish orqali ularga qarshi kriminologik chora-tadbirlarni belgilash va unga samarali profilaktik choralarni qoʻllash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Жураев Н. Халқаро терроризм ва минтақавий можаролар. - Т., 2000.-В.18.
Раджапова М. Диний экстремизм ва террорчилик. - Т., 2000. - В. 27.
Фалсафа: Комусий лугат. -Т., 2004. - В.398
Ҳалқ сўзи газетаси. – 2005 йил, 18 май № 98.
Ўзбек миллий энциклопедияси. Т.8. - Т., 2004. - В.404.
Randy Borum- Psychology of terrorism,” Mental health law & policy faculty publications”, South Florida, 2004.
http://worldspol.socio.msu.ru/programmi/Mewdunarodnyj_terrorizm